Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **226 028,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar- iyun oylari bilan taqqoslaganda **13,3** % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan **106,2** % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo‘shgan hissasi **21,0** % ga yetdi.

## 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






**YAHM o‘sish sur’ati**

**YAHM hajmi**

**YAHM deflyator indeksi**

**YAIMga qo‘shgan hissasi**

## 2026- yilning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)* |
|---|---|---|---|
| | ***2025- yil*** | ***2026- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **187 770,3** | **226 028,7** | **113,3** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 174 437,2 | 210 757,0 | 113,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 13 333,1 | 15 271,7 | 113,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **174 437,2** | **210 757,0** | **113,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **57 093,2** | **67 636,4** | **108,8** |
| sanoat | 36 591,5 | 42 278,8 | 108,0 |
| qurilish | 20 501,7 | 25 357,6 | 110,2 |
| **xizmatlar** | **117 344,0** | **143 120,6** | **115,5** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 41 495,5 | 50 230,2 | 114,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 30 108,0 | 38 534,3 | 123,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 45 740,5 | 54 356,1 | 111,5 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **70 740,8** ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan **11,0** % ga yuqoridir.

## 2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

**60 009,8** — **2025- yil**

**70 740,8** — **2026- yil**

## 2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

**2025 yil** — 8,1 %

**2026 yil** — 11,0 %

## yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2025- yil* | *2026- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 92,9 | 93,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 7,1 | 6,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **32,8** | **32,1** |
| sanoat | 21,0 | 20,1 |
| qurilish | 11,8 | 12,0 |
| **xizmatlar** | **67,2** | **67,9** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 23,8 | 23,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 17,3 | 18,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 26,1 | 25,8 |

2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **93,2** % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **6,8** % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog‘ining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi **20,1** % ni, qurilish **12,0** % ni va xizmatlar sohasi **67,9** % ni tashkil qildi.

## yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



YAHM o‘sishiga sanoat tarmog‘i – **1,6** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,7** f.p.), qurilish tarmog‘i – **1,1** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,7** f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – **9,6** f.p. (2025- yilning yanvar- iyunida – **3,2** f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM **1,0** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,0** f.p.)ga ko‘paydi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari sanoatda – **108,0** % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – **20,1** %), qurilishda – **110,2** % (**12,0** %), xizmatlar sohasida – **115,5** % ni (**67,9** %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda **114,2** % (**23,8** %), tashish va saqlash, axborot va aloqa **123,3** % (**18,3** %), boshqa xizmat tarmoqlarida **111,5** % dan (**25,8** %) iborat bo‘ldi.

## yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2025- y. | 2026- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 10,6 % | 13,3 % |
| Sanoat | 6,8 % | 8,0 % |
| Qurilish | 17,4 % | 10,2 % |
| Xizmatlar | 11,0% | 15,5 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan **106,2** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari qurilish – **112,2** % va sanoat sohalarida – **107,0** % qayd etildi.

**yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2025- y. | 2026- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,2 % | 106,2 % |
| Sanoat | 110,0 % | 107,0 % |
| Qurilish | 106,8 % | 112,2 % |
| Xizmatlar | 110,6 % | 105,6 % |

2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik **111 587,9** mlrd.so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – **91 761,5** mlrd.so‘m). YAHMdagi ulushi **52,9** % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – **52,6** %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oshganligi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2025- yil | 111 587,9 | 52,6 % |
| 2026- yil | 91 761,5 | 52,9 % |

